

**O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA  
AMALGA OSHIRILAYOTGAN VA KELAJAKDA ZAMONAVIY  
TEXNOLOGIYALARNI JALB QILGAN HOLDA YETARLI  
INVESTITSIYALARNI KIRITISH**

***XILOLA OXUNOVA ABIDJAN QIZI***  
***CHEMISTRY INTERNATIONAL UNIVERSITY IN TASHKENT***  
***TURIZM YO'NALISHI 3-BOSQICH TALABASI***

**ANNOTATSIYA** Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish masalalari, turizm infratuzilmasini isloh etish, moliyaviy qo'yilmalarni kengaytirish imkoniyatlari va shu kabi masalalar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** *turizm, infratuzilma, struktura, davlat dasturi, moliya, turist.*

## **KIRISH**

Bugungi kunda davlatimizda turizm sohasini rivojlantirishga oid qator islohotlar olib borilmoqda. Hukumat qarorlari, berilayotgan imtiyozlar, yaratilayotgan shartsharoitlar bunga misol. Jumladan O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagagi "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-sonli Qonuni qabul qilindi. Qonunda turizm sohasida yaratish lozim bo`lgan zamonaviy dasturlar, uni monitoringini olib borish, rivojlantirish tartibi belgilab berilgan.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI**

Turizm bozori va uning infratuzilmasi mohiyati va mazmuni, dasturlari, turizm industriyasi subyektlari, turizmni rivojlanishi tamoyillari, turizm bozorini tartibga solish mexanizmlari, restoran va mehmonxona xo'jaliklari, turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslari Zorin I.V, Kvartalnov V.A, Par- daev M.Q, Birjakov M.B, Beklaryan L.A., Pshennikov A.S, Morozov M.A, Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. asarlarida tadqiq etilgan. Hududlar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi ko'pincha ijtimoiy soha va turizm tarmog'ining rivojlanishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, hozirgi vaqtida

turizm milliy iqtisodiyotlarning yetakchi tarmog‘i sifatida muayyan mamlakatlarning barqaror rivojlanishida o‘zining ahamiyatli ulushiga ega. Turizm sohasi inson salohiyati rivojlanishining muhim omili bo‘lib bormoqda. Shunday ekan, bu muayyan mamlakat yoki hududda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, qo‘sishimcha investitsiyalarning jalg qilinishi, soliq tushumlarining oshishi, madaniy, tarixiy va tabiiy boyliklarni saqlash hamda oqilona foydalanishda o‘z aksini topmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnoma- sida “Turizmni rivojlantirish bo‘yicha 2021 yilda ham izchil islohotlarni davom ettiramiz. Ayniqsa, ziyorat turizmi va ichki turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor beriladi. Shuningdek, turizm ob’ektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo‘l infratuzilmalarini yaxshilash uchun budgetdan 1 trillion so‘m ajratiladi” deb deb ta’kidlanishi muhim yo‘nalish sifatida belgilab berilgan. Bu esa hududiy turizm infratuzilmasi tarkibiy qism elementlari va funksiyalarini ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini tadqiq etgan holda, uning rivojlanish yo‘nalishlari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishni zarurat etadi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekistonda turistik xizmatlar bozori infratuzilmasining tashkiliy-iqtisodiy va tashkiliy boshqaruv tuzilmalari quyidagilardan iborat. Milliy darajada davlat boshqaruv tuzilmalari:

- O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi: ushbu qo‘mita davlatning sub’ekti sifatida turistik xizmatlar bozoridagi siyosatni amalga oshiradi;
- O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport vazirligi;
- O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Bojxona qo‘mitasi: xorijiy turistlarni kirib kelishining viza tartibini nazorat qiladi;
- davlat o‘quv muassasalari: turizm sohasida kadrlarni o‘qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

Milliy darajada jamoat tashkilotlari: Sotsial turizm assotsiatsiyasi sayyoohlarning barcha toifalarini qamrab olish va ular uchun munosib sharoitlar yaratish maqsadida tashkil qilingan. Mazkur assotsiatsiya O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo‘sish istagidagi jismoniy shaxslarni birlashtirish va ularning sa’y-harakatlarini sotsial turizmni rivojlantirishga yo‘naltirish, jumladan bolalar, yoshlar, keksalar,

shuningdek, nogironligi bo‘lgan fuqarolarning sayohatlarini tashkil etishga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, inklyuziv turizmni rivojlantirish borasida xorijiy turdosh uyushmalar bilan hamkorlik aloqalarni o‘rnatadi. Turizm dasturlarini rivojlantirishda qo‘yilmalar muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasida 2010-2019 yillarda turizm sohasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi keltirilgan bo‘lib, 2019 yilda ushbu ko‘rsatkichning hajmi 1741,6 mlrd. so‘mni tashkil etgan holda 2010 yilga nisbatan 4,8 martaga oshgan. Shuningdek, sohada investitsiyalar- ning yalpi investitsiyalardagi ulushi 2010 yilda 2,3 %ni, 2019 yilda esa – 0,9 %ni tashkil etgan. Turizm infratuzilmasining rivojla- nishi hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Turizmning rivojlanishini ushbu sohada tadbirdorlikni rivojlantirmasdan amalga oshi rib bo‘lmaydi.

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Turizm dasturlari samaradorligini oshishi quyidagi holatlar bilan belgilanadi: Turistik korxona moliyaviy natijalarining erishilgan darjasini ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha raqobatchilarning erishgan darajasidan yuqori bo‘lishini ta’minlash zarur. Kelgusida turistik korxonaning barqaror rivojlanishi uchun uning moliyaviy natijalarini o‘sishi raqobatchilar erishgan natijalardan yuqori bo‘lishini ta’minlash zarur. Sayyoohlarning talab-istiklariga mos turistik mahsulotlarni diversifikatsiyalash strategiyasini ishlab chiqish korxonalarining turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida) // I.f.d. diss. – Samarqand: SamISI, 2017. 25-26-b.
2. Arxipova V.F., Devizov A.S. Ob infrastrukture kak opredelyayushchem faktore razvitiya turizma v regione. URL: <http://www.roman.by/r-78201.html>
3. Birjakov M.B. Vvedenie v turizm. - SPb.: Izdatelskiy dom Gerda, 2014.
4. Norchaev A.N. Turizm infratuzilmasida kutilayotgan o‘zgarishlar va imkoniyatlar. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2019.
5. Pardaev M.Q. va boshqalar. Xizmat ko‘rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlanti- rish: muammolar va ularning yechimlari. O‘quv qo‘llanma. – T.: «Iqtisodmoliya», 2018. - B. 133.